

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.T.Zokirov	
Lingvistik interferensiyaning mohiyati hususida	939
N.R.Umarova, O.T.Maxmudova	
O'zbek tilshunosligida nutq tovushlarining tasnifi masalasi	944
M.A.Matmusayeva	
O'yin nomlarida lingvomataniy xususiyatlarning ifodalanishi	949
D.M.Buzrukova	
"Muhabbat" konsepti hissiy olam manzarasining muhim elementi sifatida	953
N.A.Ibragimova, N.D.Axmedova, A.Sh.Tursunov	
Tilshunoslikda modus tushunchasi	957
S.M.Zokirova G.Sh.Xusanova	
Sosiolingvomataniyatshunoslik kontekstida bolalar o'yinlari tushunchasi	961
D.M.Yuldasheva	
Bolalarga xos matnlarda realiyalarning ifodalanishi	966
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov	
O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi	971



UO‘K: 811.512.133’373.

BOLALARGA XOS MATNLARDA REALIYALARNING IFODALANISHI**ВЫРАЖЕНИЕ РЕАЛИИ В ДЕТСКИХ ТЕКСТАХ****EXPRESSION OF REALITY IN CHILDREN'S TEXTS****Yuldasheva Dilafruz Maxamadaliyevna** 

Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Mazkur maqolada milliy realiyalar, ya'ni muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo'lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo'lmagan yoki begona bo'lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo'lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so'zlar yoki so'z birikmalar muqobilsiz leksika turlaridan biri ekanligi bolalar marosimlari, bolalar o'yinlari misolida tahlil etilgan. Xalqimizda farzand tug'ilishi va bola tarbiyasi bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari, marosim va unda ijro etiladigan poetik matnlarida aytim olqishlar janr sifatida o'zining tarixiy ildizlari, transformatsiya holatlari bilan realiyalarni vujudga keltirishi misollarda dalillangan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются национальные реалии, то есть названия предметов, событий и объектов, характерных для жизни, образа жизни, культуры, общественно-исторического развития конкретного народа, которые мало знакомы или чужды другим народам и имеют явную альтернативность в своих языках. На примере детских обрядов и детских игр проанализировано, что слова или словосочетания, выражающие национальный колорит, являются одним из видов безальтернативной лексики. На примерах доказано, что в нашем народе религиозные воззрения, связанные с рождением ребенка и его воспитанием, обрядом и исполняемыми в нем поэтическими текстами, аплодисменты как жанр имеют свои исторические корни и создают реалии с учетом обстоятельств. трансформации.

Abstract

In this article, national realities, that is, the names of subjects, events and objects characteristic of the life, lifestyle, culture, socio-historical development of a particular people, which are not very familiar or foreign to other peoples, and have a clear alternative in their languages It was analyzed on the example of children's rituals and children's games that the words or phrases expressing the national color are one of the types of lexicon without alternatives. It is proved in the examples that in our nation, the religious views related to the birth of a child and child's upbringing, the ritual and the poetic texts performed in it, the applause as a genre has its historical roots and creates realities with the circumstances of transformation.

Kalit so'zlar: realiya, muqobilsiz leksika, lingvomadaniy birliklar, lingvomadaniyat, etnolingvistika**Ключевые слова:** realiya, безальтернативная лексика, лингвокультурные единицы, лингвокультурология, этнолингвистика**Key words:** reality, non-alternative lexicon, linguistic and cultural units, linguistic and cultural, ethnolinguistics**KIRISH**

Bugungi kunda tilni uning sohibi bilan birga o'rganish ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarning obyektiga aylandi. Bunday tadqiqotlarning maqsadi esa ilm-fan yutuqlari faqat fan uchun emas, balki ilm-fan, avvalo, inson manfaatlariga xizmat qilishi lozim, degan kontseptsianing amaliy ko'rinishi natijasidir.

Fanlarning integrallashuvi, bilvosita tilshunoslik sohalarida tobora aniqlikni, mushtarak jihat va masalalarni vujudga keltirmoqda. Tilning jahondagi mavqei u tilda mavjud bo'lgan pretsedent birliklarga, allyuziv faktlarga bog'liqdir. Masalan, Alisher Navoiy, Ibn Sino, Ulug'bek mirzo, "Zijji Ko'ragoniy" kabi nomlar hozirda o'zbek tilini bilmaydigan xalqlarning muloqot jarayonida ham qo'llaniladiki, bu tilimizning dunyo miqyosidagi nufuzini, mavqeini ham oshiradi.

Ta'kidlash joizki, bolalarga xos og'zaki va yozma matnlarda muayyan bir didaktik maqsad ko'zda tutiladi. Allalar bolalarni ovutib uxlatisht, topishmoqlar bolalarni aqliy rivojlanish, eptaklar,

ILMIY AXBOROT

hikoyalar va poetik matnlar insoniy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, bolalarga xos matnlarda olamni idrok etish, narsa-predmet, voqea-hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini anglashga qaratilgan til birliklaridan unumli foydalaniladi. Shu bois, bolalarga xos og'zaki va yozma matnlarda lingvomadaniy birliklar: *lakuna, realiyalar, muqobilsiz leksika, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar, ctereotiplar, paremiologik birliklar, metafora, ramz, etalon, mifologema, ctereotiplar* ham qo'llaniladi. Mazkur lingvomadaniy birliklar muayyan bir janrga xos bo'lib, aniq maqsadlar asosida, matnlarda qadriyatlar, strategiyalarni aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lingvomadaniyat etnolingvistika asosida taraqqiy etdi. "Fanda lingvokulturologiya bilan bir o'rinda etnolingvistika atamasini ham qo'llash hollari kuzatiladi; har ikki atama o'zining qamroviga ko'ra bir- birini takrorlaydi, desak xato bo'lmaydi. Xususan, etnolingvistika (yunoncha ethos – xalq, qabila) tilshunoslikning til va madaniyatning uzviyligiga asoslangan masalalarni o'rganuvchi sohasi bo'lsa, xuddi lingvokulturologiya singari, etnolingvistika ham kognitiv (lot.sognitio – bilish) va kommunikativ (lot.sommunisatio – muloqot) ahamiyatli masalalar yechimini o'z oldiga qo'yadi"[1]. Milliy realiyalar – muayyan xalqning hayoti, turmushi, madaniyati, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti uchun xarakterli bo'lgan predmetlar, hodisalar va obyektlarni nomlovchi, boshqa xalqlar uchun unchalik tanish bo'lmagan yoki begona bo'lgan, ularning tillarida aniq muqobili bo'lmagan, milliy koloritni ifodalovchi so'zlar yoki so'z birikmalari; muqobilsiz leksika turlaridan biri"[2] sifatida tahlil etiladi. Shuningdek, tadqiqotchi N.Mirzayev ta'kidlaganidek, milliy realiyalar xalqimizning o'ziga xos urf-odatlar, yashash tarzi, moddiy va ma'naviy qadriyatlarni jamlagan madaniyati bilan bog'liq leksika, ya'ni "etnografik leksika" yoki "etnografik leksik qatlam"dan iborat bo'ladi [3]. Biroq N.Amonturdiyev "boshqa xalqlardan kirib kelgan, yerli xalq tomonidan milliy qadriyat sifatida qaralmagan yoki milliy qadriyat darajasiga ko'tarila olmagan urf-odat, marosimlarni milliy etnografik birlik sifatida o'rganib bo'lmaligi"[4]ni ta'kidlaydi. Aytish joizki, ijtimoiy hayotda tildan tashqarida o'xshashlik bilan bog'liq predmetlarning va hodisalarning umumiy tillararo parallelligida bir xalqning hayoti va turmushi boshqa xalqnik bilan qiyoslanganda o'ziga xoslik bilan birga, o'zaro farq qiluvchi jihatlarning milliy elementlari ham namoyon bo'ladi. Milliy o'ziga xoslikning bunday ko'rinishi millatlararo aloqalarning kengligi bilan uzviy bog'langan va ziddiyatlarning dialektik birligi ham aynan shundan iboratdir. Akc holda turli xalqlar o'rtasidagi munosabat jarayoni yuz bermas edi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, xalqimizda bolalar bilan bog'liq ko'plab udumlar, urf-odatlar uchraydi. Lingvokulturologiyada milliy realiyalar sifatida tadqiqot obyekti bo'lgan bolalar marosimlari, bolalar o'yinlari garchi uzoq tarixga bog'lansa-da, ular zamonaviy tilshunoslikda o'rganilishga doimo muhtoj bo'lgan xalqimizning bebaho xazinasidir. Tilshunoslikda etnografik leksika tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab ilmiy izlanishlar mavjud bo'lib, N.R.Amonturdiyevning "Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari" mavzusidagi dissertatsiyasining birinchi bob "O'zbek tilshunosligida etnografizmlarning o'rganilishi" nomli 3-bo'limida masalaga atroflisha izoh beriladi. Yaratilgan tadqiqotlar tahlil qilinadi, ularga munosabat bildiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz ham insonning bolalik davri rivojlanishi bilan bog'liq milliylik ifodalarini quyidagi guruhlarga ajratib ko'rsatishni lozim topdik:

1. Taom nomlarini ifodalovchi etnonimlar: *loyxo'rlik, gulitaxo'rlik* qadimda "boshi qorong'i" bo'lgan kelinlar birga quroq, chorsi, do'ppi tikib, gulitaxo'rlik qilishgan. O'tmishda gilbutani homilador ayollarga va bir-ikki yashar bolalarga suyagi qotishi va tishini mustahkamlash maqsadida berilgan. K.Mahmudov dengizda qaysidir o'simlikdan ajralgan organik moddalarning loy bilan birikishi natijasida ovqat paydo bo'lganligini ta'kidlaydi: "Gilbuta aslida dengiz balchig'idir. "Gil" – loy, "byta" – o'simlik ma'nosida [5]qo'llaniladi. K.Mahmudov ta'kidlaganidek, gulbuta yeyishga sabab homilaning rivojlanishi va tug'ilgan bolaning o'sishi uchun a'zolarga fosfor, kaliy, magniy kabi ma'dan moddalarning tuzlari zarur bo'ladi. Hozirda uning o'rnini kalsiy gulikanati tabletkalari egallagan. Shu bois loyxo'rlik, gulitaxo'rlik udumi ham yo'qolib bormoqda.

"*Tugunoshi*","*Chuchvaratugar*" udumlari quyidagisha tartibda o'tkazilgan, ya'ni og'iroyoq xotinning ko'zi oson yorishi uchun unga atab osh tayyorlangan, ayrim joylarda esa chuchvara tayyorlanib, tugilgan joyi uzilgan-da, keyin iste'mol qilingan. "*Kulchayumaladi*", "*sochqisochdi*" marosimlari O'zbekistonning ba'zi hududlarida uchraydi, bolalar ildam yurib ketishi uchun kulcha

tarqatiladi, vodiya shirinlik sochiladi, oq paxta bolaning oyog'i otdan yumalatiladi hamda quyidagi poetik matnni momo va yoshi ulug' onalar marosim tugagunga qadar aytib turishadi:

*Adoq-adoq yursin,
Tikan shunga kirmasin.
Ko'zi qattiq bandaning,
Ko'zi shunga kirmasin.*

Yuqoridagi glyuttonik marosimlar xalqning etnik va lisoniy xususiyatlari o'zaro bog'liq ekanligidan dalolat beradi. O'zbek xalqining azal-azaldan bolajonligi milliy o'zligini tashkil etib, yaxshi niyat ifodasi bo'lgan "Gulitaxo'rlik", "Tugunoshi", "Chuchvaratugar", "Kulchayumaladi", "Sochqisochedi" etnonimlari milliy realiyalarni hosil qilib, xalqimizning ma'naviy negizlariga ham daxl qilgan oliy qadriyatlar sanalgan. Ular hozirgi kunda bolalar bilan bog'liq etnoleksmalar bo'lib, xalqimiz etnomadaniyatida ezgu niyatlarni ifodalaydigan nominativ birlik hisoblanadi.

1. Bolalik davriga oid marosim nomlari: *aqiqa, beshikkecha, chillaguzarang, chillaqochdi, beshik to'yi, sunnat to'yi.* Mazkur marosimlar bolalar hayotiga daxldor bo'lib, aqiqa bolaning yetti kunlik, o'n to'rt kunlik yoki yigirma bir kunligida o'tkaziladigan marosim hisoblanadi. *Beshikkecha va beshik to'ylari* bolaning beshikka belash marosimlari bo'lsa, *chillaguzarang, chillaqochdi* onaning jismoniy holatini yaxshilashga qaratilgan urf-odatlar sanaladi. O'zbek milliy an'ana va urf-odatlari, moddiy-ma'naviy madaniyati leksikasi maxsus etnografik aspektda o'rganib kelinmoqda. Ayniqsa, o'zbekona to'ylar leksikasi tahliliga bag'ishlangan ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ularda bolalik davri etnoleksikasiga oid birliklar – chaqaloqlik davri marosimlariga ham e'tibor qaratilgan [6].

Ma'lumotlarda qayd etilganidek, "to'y" etnonimi – qadimgi turkiy so'z bo'lib, "toy" yoki "qurultoy" shaklida mo'g'ullar va chig'atoy xonlari davrida ham keng qo'llangan. XIV asrda Movarounnahr hududiga sayohat qilgan arab sayyohi Ibn Battuta esdaliklariga asosan "toy" – bu har yili o'tkaziladigan yig'in (qurultoy), unda Chingizxon avlodlari, amirlar va turkiy beklar obro'li ayollar va lashkarboshi ishtirok etgan [7]. Bolalar to'y marosimlari bolalarning muayyan yoshida o'tkazilgani uchun u bilan bog'liq jarayonlarni ifodalovchi etnografik leksemalar: *beshikkecha, chillaqochdi, beshik to'yi* bolalarning chaqaloqlik davri bilan bog'lansa, *sunnat to'yi* bolaning kishik yoshlik davriga xos bo'lgan etnonim sanaladi.

2. Bolalar o'yinlari: *sabzi-sabzi, quyonim-quyonim, to'ptosh, xommompish, lanka, berkinmachoq.* Mazkur o'yin semali etnonimlar nafaqat bolalarning jismoniy rivojlanishiga, balki ularning muloqot jarayoniga, ijtimoiylashuviga ko'maklashgan. Bolalar o'yinlari qaysi shakl, mavzu, yo'nalishga ega bo'lmasin – loytuproq bilanmi, yog'ochu kaltakmi, ipu arqon bilanmi, qanday shaklda bo'lsa ham, bolani turmush ikir-chikirlari, umuman, katta hayotga tayyorlashda o'ziga xos hunar maktabi rolini o'ynagan [8]. Ta'kidlash joizki, *to'ptosh, xommompish* o'yinlari bolalarning mayda qo'l motorikasini rivojlantirishga xizmat qilsa, *lanka, berkinmachoq* bolaning qad qomatini shakllantirish, tayanch harakatlanish sistemasining rivojlanishiga yordam bergan.

3. Bolalar buyumlari: *beshik, sumak, guvara, ko'rpacha, pinni (faqat bola beshigida bug'doy, poxol, tariq yoki qovurilgan no'xatning po'sti solinadi), yupqa ko'rpacha, oyoq o'ragish, qavzdon, yelka o'ragish, yopinchiq (ro'yjoy), belanchak (alvonjin).* Beshik bilan bog'liq etnonimlar hudud va makonga ko'ra turli nomlar bilan atab kelingan.

Yuqorida belgilangan etnonimlar milliy realiyani vujudga keltirib, ular o'zbek xalqining bolalar bilan bog'liq qadriyat va e'tiqodiy qarashlariga oid nomlar, turmush tarzida keng qo'llaniladigan narsa-predmet, voqea-hodisalar, holat nomlaridir.

Xalqimizda farzand tug'ilishi va bola tarbiyasi bilan bog'liq e'tiqodiy qarashlari, marosim va unda ijro etiladigan poetik matnlarida aytim olqishlar janr sifatida o'zining tarixiy ildizlari, transformatsiya holatlari bilan realiyalarni vujudga keltiradi.

Bolalar bilan bog'liq bo'lgan etnonimlardan yana biri o'zbeklarning qadimiy udumlariga ko'ra, chaqaloqqa kiygiziladigan ilk libos - chilla ko'ylak yoki itko'ylak kiygizish odatidir. Bu odatga ko'ra, chaqaloqning momosi yoki buvisining eski ko'ylagidan tayyorlanadigan ko'ylakcha qaychida qirilmagan. Folklophunos olimi N.X.Qurbonova [9] kyzatishlariga ko'ra, doya momo chaqaloqni qo'lga olib, avval ko'ylakchani qo'y bog'langan qoziqqa kiygizib ko'rgan. Yolg'iz bolaga ziyon-zahmatlar hujum qiladi, deb buxoroliklar bola bosh tomoniga kulcha, pishoq, sarimsoq; namanganliklar kulcha, tuz, sarimsoq, isiriq, piyoz; surxondaryoliklar oyna, taroq; toshkentliklar

ILMIY AXBOROT

taroq, oyna, kulcha, pishoq, garmdori, ko'zmunchoq; samarqandliklar toshqayroq, taroq, kulcha, piyoz, qalampir; andijonliklar tosh, kulcha; qashqadaryoliklar ko'zmunchoq, kulcha, pishoq, piyoz, qalampir kabi magik xususiyatga ega deb tasavvur qilgan narsalarni qo'yadilar.

Beshik to'yida bolani beshikka belash jarayonida bajariladigan magik harakatlar ko'p asrlar davomida o'z shakli va mohiyatini o'zgartirmasdan xalq orasida saqlanib kelgan. Chaqaloqni ilk bor beshikka belashda bu udumni bajarayotgan ayol, albatta, bolani ikki marta beshikka noto'g'ri yotqizadi. Uchinchi martasida chaqaloqni beshikka to'g'ri yotqizadi. Kuzatishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, chaqaloqni beshikka birinchi marta belash bilan bog'liq bu magik harakat O'zbekistonning deyarli barcha hududlarida amalda qo'llaniladi-yu, ammo uning bajarilishida muayyan o'ziga xosliklar mavjuddir. Bu hududiy farqlar quyidagicha: kayvoni tomonidan bajariladigan magik harakatning raqam ramzi uchlikka rioya qilishi hamma joyda qayd qilingan bo'lsa-da, bu udumning bajarish chog'ida aytiladigan so'z komponent, ya'ni aytim olqishlarda farq seziladi.

Bola ilk bor beshikka belangandan keyin an'anaga ko'ra, duxoba yoki quroqli ko'rpacha yopilgan beshik qubbasi ustida yong'oq chaqiladi. Beshik ustidan qand-qurs, yong'oq, mag'iz, pista sochadilar. Bu sochqilar ham muayyan ramziy ma'noga ega. Surxondaryoda beshikning ustiga yetti qavat narsa yopiladi, bir qavati dasturxon bo'ladi. Beshik ustiga yopilgan narsalarning olti qavat bo'lishiga sabab bola ulg'ayganda og'ir, bosiq, mo'min-qobil odam bo'lsin deb irim qilishdir. Xalqimiz udumiga ko'ra, yetti pushtini bilish savob, hatto avlod ham yettita: farzand, nevara, evara, chevvara, kavara, ovora, begona. Beshik ustiga yetti qavat narsa yopish odati ham ana shu sehrlil yetti raqamiga e'tiqod qo'yishdan kelib chiqqan.

Bolalik marosimlari o'zining tarixiy-badiiy evolyutsiyasi davomida, bir tomondan, qadimgi tasavvurlar va marosimlar bilan, ikkinchi tomondan, islom dini ta'limoti ta'sirida tug'ilgan udumlar bilan boyib, takomillashib, xilma-xil irim-sirimlar, udumlar majmuasidan iborat ommaviy tadbir sifatida shakllangan.

Bolalik kishilik jamiyatining bebaho davri, turli xalqlarda ayni shu vaqtni ifodalovchi etnonimlar mavjud bo'lib, ular milliy realiyalarni hosil qiladi. Masalan, yapon oilalarida bola istaganisha ota-onasining qo'lida yoki orqasiga osilib yurib, ularning g'amxo'rlikidan yetarlisha bahramand bo'ladi. Ota-onalar farzandiga o'zlarining «amae» larini (yapon tilidan amaeru – «g'amxo'rlik qilish, yaxshi ko'rish») taqdim etishga doim tayyor turadi. *Amae*, bizning tushunchamizdagi yaxshi ko'rish, g'amxo'rlikdan farqlanadi. *Amae* sabab tashqaridan bolalarni, umuman koyishmaydigandek tuyuladi. Ba'zi narsalarni so'zsiz ifodalash yapon nutq madaniyatining o'ziga xos tomonidir. SHu bois yaponlar kayfiyatni juda yaxshi sezishadi va cuhbatdoshlarining haqiqiy fikrini intuitiv tarzda his qilishadi. Yaponlar farzandlarini shaxsiy o'rnlari misolida tarbiyalashadi. Bolalar ota-onalarining noroziligini ruhan his qilishadi. Ularni norozi nigohlar, ma'qullamaganlikni bildiruvchi cukut bilan jazolashadi. Aytish mumkinki, *amae* so'zi yapon tarbiya madaniyatining bo'lagi sifatida realiya sanaladi. Yaponlarda yana bir tarbiya uculidan hosil bo'lgan realiya mavjud. U yapon tilida «yo'qolgan bola» ma'nosini ifodalovchi, yapon tilida «*maygo*» realiyasidir. Doimo onasini his qilib turish bolaning me'dasiga tekkach, u atrofdagi narsa-hodisalarga, voqelikka qiziqish bildira boshlaganida, uni cheklashmaydi, balki unga... «yashirinish» imkonini berishadi. Yaponiyada hech kim bola o'g'irlamaydi, transport ham xavfsiz tashkil etilgan, odamlar ko'chada o'zlarini bosiqlik bilan tutishadi, buning uctiga, eng muhim tomoni, jamiyatdagi odamlar bir-biriga o'xshash, ya'ni madaniyatdosh. Atrofdagi odamlar bu uculni yaxshi bilishadi va «*maygo*»ning topilishiga yordam berishadi. Xotirjamlik bilan, politsiyani aralashtirmacdan va asabiylashmacdan yordam berishadi. Bolaning onasi shu atroflarda yurgan bo'ladi, atrofdagilar uni ko'rib ham turishadi. Odamlar bolaga yo'nalish olishga ko'maklashishadi, ammo shu bilan birga, «*maygo*» bo'lib qolish, o'z «*amae*»sini yo'qotish yomonligini va keyin «*topilish*» baxtini ham bolaga his qildirishadi. Shundan keyin odatda bola onasidan uzoqroqqa ketib qolishga boshqa harakat qilmaydi. Ayni shu holatni ifodalovchi *amae* va *maygo* munosabatiga doir ko'plab badiiy filmlar va multfilmlar yaratilganki, undagi obrazlar o'zbek madaniyatidan farqlanadigan tushunchalarni namoyon etadi. O'zbek oilalarida «*beshik bolasi bek bolasi*», deb ardoqlanishi, chaqaloqlikdan beshikka solinishi, *beshik to'yi*, *chilla qochdi* kabi milliy realiyalarni ifodalasa, bu holat kishkina bolasini har doim shunchaki qalin mato bilan orqalariga yoki ko'kraklariga bog'lab olib yurgan yapon onasi uchun g'ayritabiiy holat, balki shafqatsizlikday tuyulishi mumkin.

Kunchiqar mamlakatidagi qadimiy madaniy anʼanalarning bir koʻrinishi boʻlgan *amae*, *maygo* hamda oʻzbek oilasidagi beshik marosimi realiya sifatida boshqa tillarda qoʻllanilishi bu madaniyatning til bilan dialektik bogʻliqligidan dalolat beradi. Bu holat tushunchaning soʻzga qaraganda serqirra ifodasini namoyon etadi.

XULOSA

Matnda milliylikning ifodalanishining uch xil usuli aniqlandi: 1. Bolalik davriga oid marosim nomlari. 2. Bolalar oʻyinlari. 3. Bolalar buyumlari. Mazkur nomdagi etnonimlar milliy realiyani vujudga keltirib, ular oʻzbek xalqining bolalar bilan bogʻliq qadriyat va eʼtiqodiy qarashlariga oid nomlar, turmush tarzida keng qoʻllaniladigan narsa-predmet, voqea-hodisalar, holat nomlaridir.

Matnda milliylikni aks ettiruvchi birliklardan biri realiya – muayyan xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlari, milliy turmush tarziga oid atama, leksemalar boʻlib, uning boshqa tillarda muqobili uchramaydi. *Beshik toʻyi*, *chillaqochdi*, *beshikkecha* kabi atamalar aynan turkiy xalqlarga xos boʻlgan marosim nomlari boʻlib, ular “onalarning inctinktiv faoliyati natijasi boʻlmay, balki ijtimoiy tajribalar, ijtimoiy ong mahculi” sifatida voqelanadi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Maxmaraimova Sh.T. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Choʻlpon, 2017. – B.25.
2. Xudoyberganova D. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lugʻati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B.32.
3. Mirzayev N. Oʻzbek tilining etnografik leksikasi (Qashqadaryo viloyati oʻzbek shevalari materiallari asosida) fil.fan.nomzodi dis. – Toshkent, 1971
4. Amonturdiyev N.R. Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari. Fil.fan.boʻyisha fals.dok.(PhD) – Termiz, 2021. – B.32.
5. Mahmudov K. Qiziqarli pazandalik. - Toshkent: Oʻqituvchi.1995. -224 b.
6. Joʻraboyev A. Oʻzbek tilidagi toʻy marosimlari bilan bogʻliq atamalar (Andijon shevalari materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ...diss. – Toshkent, 1971. – B.10; Husainova Z. Oʻzbek tilida toʻy marosimlari atamalarining onomasiologik tadqiqi (Buxoro shevalari materiallari asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1984; Ismoilova O.O. Oʻzbek toʻy marosim folklorida “Kelin salom” janri. Fil.fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1999; Hayitova F. Nikoh toʻyi qoʻshiqlarining lisoniy talqini: Filol.fanlari nomzodi diss. avtoref. – Toshkent, 1998; Nurillayeva Sh.M. Turkiston qarluf tip shevalarida toʻy marosimi nomlari: Filol. fan nom. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2001; Davlatov S. Qashqadaryo vohasi oʻzbek toʻy marosimlari folklori: Filol. fan. nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1996. Qosimova R. Oʻzbek toʻy va motam marosim folklori matnlarining inglizcha tarjimasida etnografizmlarning berilishi: Filol.fan.boʻyisha fals.dok. (PhD) dis. –Toshkent, 2018., 21-b.
7. Bartold V.V. Sochineniya. Tom V. – Moskva, Nauka, 1968. – S. 162-163.
8. Ishoqov B.B. Bolalar oʻyinlarining etnografik xususiyatlari // Oʻzbekiston etnologiyasining dolzarb muammolari. – Toshkent-Namangan, 2007.–249 b.
9. Qurbonova N.X. Oʻzbek bolalar marosim folklori: Filol. fan. ...nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – B.14.